

ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALARNI O‘QITISHNING TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Karimova Zulfiya Abduraxmanovna

Alfraganus Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Inagamova Ra‘no Baxodirovna

Alfraganus universiteti

Logopediya yo‘nalishi II-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada alohida ehtiyojli bolalarni o‘qitishning turli tashkil etish shakllari yoritiladi. Jumladan, inklyuziv ta‘lim, maxsus ta‘lim muassasalari, masofaviy ta‘lim va individual ta‘lim shakllarining afzalliklari hamda muammolari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: alohida ehtiyojli bolalar, inklyuziv ta‘lim, maxsus ta‘lim, masofaviy ta‘lim, individual ta‘lim, nogiron bolalar, ta‘lim tizimi, integratsiya, ijtimoiylashuv, pedagogika.

ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются различные формы организации обучения детей с особыми потребностями. В частности, анализируются преимущества и проблемы инклюзивного образования, специальных образовательных учреждений, дистанционного и индивидуального обучения.

Ключевые слова: дети с особыми потребностями, инклюзивное образование, специальное образование, дистанционное обучение, индивидуальное обучение, дети с инвалидностью, система образования, интеграция, социализация, педагогика.

FORMS OF ORGANIZING EDUCATION FOR CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS

Annotation: This article explores various forms of organizing education for children with special needs. Specifically, it examines the advantages and challenges of inclusive education, special education institutions, distance learning, and individualized instruction.

Keywords: children with special needs, inclusive education, special education, distance learning, individualized education, disabled children, education system, integration, socialization, pedagogy.

KIRISH.

Hozirgi kunda alohida yordamga muhtoj bo‘lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning ta‘lim olish imkoniyatlarini ta‘minlash juda muhim masala hisoblanadi. Inson huquqlari va ijtimoiy tenglik tamoyillariga asoslanib, barcha bolalar, jumladan, alohida ehtiyojli bolalar ham sifatli ta‘lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13- oktyabrdagi «Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860 sonli qarori, Prezidentimizning PQ-74-sonli, 2023-yil, 27-fevralda tasdiqlangan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham mavzuumizning naqadar dolzarb ekanini yana bir bor ko‘rsatib beradi.

Bu jarayonda ta‘limni tashkil etish shakllari katta ahamiyat kasb etadi. Chunki alohida yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirilgan ta‘lim tizimi ularning shaxsiy rivojlanishi, o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishi hamda jamiyatga moslashishi uchun muhim omildir. Quyida alohida ehtiyojli bolalarni o‘qitishning asosiy shakllari afzalliklari va kamchiliklari haqida batafsil ma‘lumot beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Alohida ehtiyojli bolalarni o‘qitish jahon miqyosida turli pedagogik yondashuvlar va metodologiyalarga asoslanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonda individual yondashuv, maxsus ta‘lim dasturlari va inklyuziv ta‘lim kabi shakllar asosiy o‘rin tutadi.

Inklyuziv ta‘lim – bu alohida ehtiyojli bolalarni umumta‘lim muhitida o‘qitish konsepsiyasi bo‘lib, zamonaviy pedagogika va psixologiya nuqtai nazaridan keng qo‘llanilmoqda va ayni kunarda yurtimizning har bir tayanch maktablarida joriylanmoqda.

Booth va Ainscow (2002) ta‘lim jarayonida ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish, teng imkoniyatlarni yaratish va har bir bolaning potentsialini ochish zarurligini ta‘kidlaydilar. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta‘lim nafaqat akademik natijalarni, balki ijtimoiy hamkorlik va hissiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi. Zamonaviy metodologiyalar, interaktiv texnologiyalar va qo‘llanilayotgan raqamli resurslar inklyuziv sinflarda bolalarning faol ishtirokini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Barcha alohida ta‘lim ehtiyoji bor bolalar uchun mos keluvchi moslashtirilgan ta‘lim muhitini tashkil etish Devid Mitchel tomonidan samarali deb topilgan va bu borada O‘zbekiston respublikasida xorij ta‘lim tizimi kabi inkluziv ta‘limga o‘tish bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilib kelmoqda. Bu yondashuvda bolalarga individual rehabilitatsiya dasturlari tuzilib, maxsus o‘qituvchilar tomonidan dars beriladi (Mitchell, 2008).

Ko‘plab tadqiqotlar alohida ehtiyojli bolalar uchun individual ta‘lim dasturlarini (ITD) joriy etishni tavsiya qiladi. Bu dasturlar har bir bolaning qobiliyat va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi va ta‘lim jarayonining muvaffaqiyatini oshiradi (Smith, 2010).

Lani Floriani tomonidan (2014 y) ko‘p tarmoqli yondashuv ham e‘tirof etilgan bo‘lib, unda pedagoglar, psixologlar, logopedlar va boshqa mutaxassislar birgalikda ishlaydi. Bu yondashuv bolalarning rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Alohida ehtiyojli bolalarni ta‘lim jarayoniga jalb qilish turli shakllarda amalga oshiriladi. Har bir shakl bolaning rivojlanishidagi kamchiliklarining turi, rivojlanish darajasi, ijtimoiy ko‘nikmalari va o‘qish imkoniyatlariga qarab tanlanadi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA.

Innovatsion yondashuvlar yordamida individual o‘quv rejaları yaratish, raqamli vositalar va maxsus dasturlar orqali o‘qitish jarayoni yanada samaraliroq bo‘lib bormoqda. Inklyuziv ta‘limning afzalliklari shundaki, u bolaning ijtimoiylashuviga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, alohida yordamga muhtoj bolalar uchun maxsus maktablarga borish zaruriyati kamayadi, jamiyatda tenglik va inklyuziya g‘oyasini mustahkamlaydi. Shu bilan birga ta‘limda inklyuziv bir qancha muammolarga duch kelish ham mumkin. Jumladan, o‘qituvchilarning yetarlicha tayyor emasligi, maktablarda alohida yordamga muhtoj bolalar uchun yetarlicha sharoit mavjud emasligi, ota-onalar va jamiyat tomonidan noto‘g‘ri qarashlar mavjudligi.

Ba‘zi hollarda alohida yordamga muhtoj bolalar umumiy maktablarga moslasha olmaydi yoki ularning maxsus ehtiyojlari mavjud bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda maxsus ta‘lim muassasalari tashkil etiladi.

Maxsus ta‘lim muassasalarining xususiyatlari shundaki, ushbu maktablar faqat alohida ehtiyojli bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularga maxsus metodika asosida ta‘lim beriladi. Masalan, ko‘rishida alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar Brayl yozuvi asosida, eshitishida alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar daktil va imo-ishora asosida, logoped va surdopedagogning korreksion mashg‘ulotlari yordamida o‘qitiladi. Maktablar zamonaviy texnologiyalar va moslashtirilgan o‘quv vositalari bilan jihozlangan bo‘ladi. O‘qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o‘tib, har bir bolaning ehtiyojiga mos metodikani ishlab chiqadilar.

Maxsus ta‘lim muassasalarining afzalliklari bolalar o‘z imkoniyatlariga mos holda o‘qitilishi, o‘qituvchilar maxsus kasbiy malakaga ega bo‘lishlari, alohida yordamga muhtoj bolalar o‘zlarini qulay his qiladi va o‘rtoqlari orasida o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishidadir. Kamchiligi sifatida, bunday muassasalar hamma joyda mavjud emasligi, alohida yordamga muhtoj bolalar jamiyatdan ajralib qolishi mumkinligini keltirish mumkin.

Texnologiyalar rivojlanishi natijasida nogiron bolalar uchun masofaviy ta’lim imkoniyatlari kengaymoqda. Masofaviy ta’lim deganda, bolalar uyda yoki o‘zlariga qulay joyda turib onlayn darslar orqali o‘qishi tushuniladi.

Masofaviy ta’limning jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulayligi, o‘quv jarayoni bolaning imkoniyatlariga moslashgan holda olib borilishi, o‘quv materiallaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyati mavjudligi kabi ijobiy tomonlari bor. Ammo texnik vositalar va internetdan foydalanish imkoniyati hamma bolalarda ham mavjud emasligi, o‘qituvchi bilan bevosita muloqot yetishmasligi, ayrim bolalar uchun o‘z-o‘zini boshqarish qiyin bo‘lishi mumkinligi kabi kamchiliklari mavjud.

Ba’zi bolalar umumiy ta’lim muassasalarida yoki maxsus maktablarda o‘qishga mos kelmaydi. Ularning individual ehtiyojlari borligi uchun ularga individual yondashuv talab etiladi. Individual ta’limning xususiyatlari shundan iboratki, bolaning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlariga qarab maxsus dastur ishlab chiqiladi. O‘qituvchi bolaga alohida yondashadi va o‘qitish usullarini moslashtiradi. Individual rehabilitatsiya va rivojlanish dasturlari qo‘llaniladi. Individual ta’limning afzalliklari har bir bolaning ehtiyojlariga mos ta’lim berilishi, ta’lim sifati yuqori bo‘lishi, bolaning rivojlanish sur’atiga qarab moslashtirilishidadir. Kamchiliklari esa bunday ta’lim shakli qimmat va ko‘proq resurs talab qilishi, bola ijtimoiylashish imkoniyatidan mahrum bo‘lishi mumkinligidadir.

Alohida yordamga muhtoj bolalarni ta’lim jarayoniga jalb qilishda infratuzilma muammolari – ko‘plab maktablar alohida yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirilmaganligi, mutaxassis o‘qituvchilarning kamligi, ba’zi oilalar alohida yordamga muhtoj bolalarni ta’limdan chetlashtirishadi yoki ular uchun ta’lim olish imkonsiz deb hisoblashlikllari kabi muammolar ham kuzatiladi.

XULOSA. Alohida ehtiyojli bolalarni o‘qitish ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhimdir. Har bir bola teng ta’lim olish huquqiga ega bo‘lib, buni ta’lim muassasalari va jamiyat qo‘llab-quvvatlashi zarur. Alohida ehtiyojli bolalar ta’lim olishi uchun qulay sharoit yaratish ularning jamiyatning faol a’zosi bo‘lishiga yordam beradi. Yurtimizda yuqoridagi barcha ta’lim shakllari samarali yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, hozirda yangi qonunlar, qo‘shimcha qaror va chora-tadbirlar orqali yanda takomillashib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni.
2. “Inklyuziv ta’lim asoslari” (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, 2020.
3. Achilova, S. J., Karimova, Z. A. (2022). The value of the educational cluster in a multidisciplinary preschool organization. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar*, 1(1), 52-54.

4. Миронова М. В., Смолина Н. С., Новгородцева А. Н. Инклюзивное образование в школе: противоречия и проблемы организации доступной среды (на примере школ Российской Федерации) // Перспективы науки и образования. 2019. № 6 (42). С. 349-359. doi: 10.32744/pse.2019.6.29
5. Axmedova S. “Inklyuziv ta’lim: muammolar va yechimlar” – Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 2021.
6. Qodirova, FU, Karimova, ZA, Xusnuddinova, ZX (2023). Inklyuziv ta’limga jalb qilingan zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari. Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari, 1(1), 156-157.
7. Abdusalilova, S. A., & Karimova, Z. (2023). Use of innovative technologies in working with children with disabilities in multidisciplinary preschool educational organizations. *Science and innovation*, 2(B4), 617-619.
8. Abduraxmanovna, K. Z. (2022). Organization of innovative activities of teachers of multidisciplinary preschool education in an educational cluster.
Onlayn manbalar:
9. www.lex.uz Alohida ehtiyojli bolalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qarorlar bilan tanishib chiqish uchun.
10. www.edu.uz – O‘zbekistonda ta’lim tizimiga oid rasmiy veb-sayt.
11. www.unicef.org – Alohida ehtiyojli bolalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro ma’lumotlar.